

Samarali ijro intizomi-islohotlar natijadorligining muhim omilidir



Samarali ijro intizomi-islohotlar natijadorligining muhim omilidir

Ayni shu mavzuda tuman xalq ta'limi bo'limida seminar o'tkazildi. Mazkur seminar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 may kunidagi 5132-sonli «ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarorini amalga tatbiq etishga bag'ishlandi.

Seminarda tuman hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning So'x tumani Xalq Qabulxonasi, tuman huquq-tartibot idoralari vakillari va tuman adliya bo'limi boshlig'i qatnashdi.

Seminarni tuman hokimligi ijro-intizom bosh mutaxassisi Ibrohim Ahmatov ochib kun tartibidagi masala bilan seminar ishtirokchilarini tanishtirdi.

Barcha seminar ishtirokchilariga tadbirda qatnashgan mas'ul vakillar yangi tizimga ko'ra, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar harakati haqida, ya'ni ularning ijrosini tashkil etish 5 ta bosqichda amalga oshirilishi, Farmon asosida joriy etilgan yangi tizimni amaliyotga to'laqonli tatbiq etilishi, shuningdek, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining o'z vaqtida va natijali ijro etilishini ta'minlashda, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratni olib borish va mazkur tizimni yuritishda Adliya vazirligining mas'uliyati belgilanganligi, "Ijro.gov.uz" ning samaradorligi bo'yicha aniq ijrochilar, muddatlar va bajarish mexanizmi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar bilan ishlash tizimi va asosiy tamoyillari, barcha normativ xujjatlar asosida ijro intizomi, murojaatlarni kurib chiqish tartibi yuzasidan ma'lumotlar berishdi.

Tadbirda ishtirok etgan mutasaddilar mutaxassislarga savollar berib, javoblar oldilar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-19 16:25:53